

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATKULOVA O'GILXON ODILOVNA

**SARIMSOQPIYOZ VA PIYOZ ASOSIDA XALQ TABOBATIDA
FOYDALANISH UCHUN TOVARLAR OLIH VA ULARNI SINFLASH**

02.00.09 -Tovarlar kimyosi

14.00.41 - Xalq tabobati

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorefarati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Mamatkulova O'gilxon Odilovna

Sarimsoqpiyoz va piyoz asosida xalq tabobatida foydalanish uchun tovarlar olish va ularni sinflash 3

Маматкулова Огилхан Одилевна

Получение товаров чеснока и лука для использование в народной медицине и их классификация 21

Mamatkulova Ogilkhan Odilovna

Obtaining garlic and onion products for use in Traditional medicine and their classification..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ 43
List of published works.....

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATKULOVA O'GILXON ODILOVNA

**SARIMSOQPIYOZ VA PIYOZ ASOSIDA XALQ TABOBATIDA
FOYDALANISH UCHUN TOVARLAR OLIH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/K538 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-saxifasida (www.adu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
kimyo fanlari doktori, professor
Abdulloyev Obidjon Shaxabidinovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xo'jayev Vaxobjon Umarovich
kimyo fanlari doktori, professor
Dexkonov Raxmatilla Sultonovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "05" 05 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33 e-mail: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "25" 04 kuni tarqatildi.
(2025 yil "25" 04 dagi 53 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Sh.M.Qirg'izov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

M.M.Xojimatov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda turli parazit organizmlarning inson salomatligiga nojo'ya ta'siri sababli kasalliklar kelib chiqishi ko'payayotgan bugungi davrda, dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida inson organizmi uchun foydali va bezarar bo'lgan, parazitlarga qarshi tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, qadimdan nafaqat ozuqa sifatida, balki xalq tabobatida keng qo'llanilib kelayotgan sarimsoqpiyoz (*Allium sativum L*) va piyoz (*Allium cepa L.*) kabi o'simliklar mahsulotlarida kuchli antigelmint, yallig'lanishga qarshi xususiyatli, vitaminlar, biogen elementlar, polifenol birikmalarni aniqlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuning uchun, ushbu o'simliklar tarkibidagi inson organizmi uchun foydali bo'lgan birikmalar, makro- va mikroelementlarni aniqlash, hamda ular asosida yangi turdagi oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda terini mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan kasalliklarni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo'lgan dorivor o'simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalardan tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tarkibida tabiiy birikmalari saqlovchi dorivor o'simliklar asosida mikroorganizmlarni ko'payishini oldini olishda samarali ta'sirga ega yangi turdagi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari va dori vositalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, biologik faolligini aniqlash hamda tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasida sinflashga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuning uchun ham, tarkibida oltingugurt saqlovchi sarimsoqpiyoz va piyoz o'simliklari asosida ayrim teri kasalliklarini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish, ularni kimyoviy tarkibini aniqlash asosida tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi qoidalariga binoan tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda inson salomatligini ta'minlash borasida turli-tuman dori-darmonlar va dorivor vositalar ishlab chiqish hamda aholi salomatligini ta'minlash maqsadida diqqatga sazovar amaliy ishlar olib borilib muayyan natijalarga erishilgan. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Farmasevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Bu borada Farg'ona vodiysida o'suvchi sarimsoqpiyoz va piyoz o'simliklari tarkibidan biologik faol moddalari tarkibini aniqlash, ular asosida turli biologik faollikka ega oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish, amaliyotga joriy qilish hamda sertifikatlash mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, shuningdek 2020 yil 10 apreldagi PF-4947- PQ-4668-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yurtimizda dorivor o‘simliklardan foydalanib bemorlarni davolash katta ahamiyatga ega. Sarimsoqpiyoz va piyozni kimyoviy tarkibini Rossiyalik olimlardan Seredin T.M., Alabina N.M., Pavlov L.V., Kondrateva I.Yu., Sannikova T.A., Machulkina V.A, sarimsoqpiyozni yangi navlari hamda ularning kimyoviy tarkibini o‘rganishgan, Angilyada Chester J. Kavallito va Jon Xeys Beyli, Germaniyada N.D.Bennettom, P.D.Djoslingom sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi biologik faol birikmalarni to‘planish davri va miqdorlari ustida tadqiqotlar olib borishgan, Serbiyalik olim T.D. Kundakovic sarimsoqpiyoz tarkibidagi asosiy ta’sir etuvchi komponent allisin birikmasini mikroorganizmlarga qarshi faolliklarini aniqlagan, Xitoylik olimlardan esa Xin-Xin Zhao, Fang-Jun Lin, Yu Wang, Ren-You Ganlar turli mintaqalarda yetishtirilgan sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi biologik faol birikmalarni miqdori hamda ularning biologik faolliklari ustida tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Dorivor o‘simliklar tarkibidan biologik faol birikmalarni ajratib olish, ular asosida dori vositalari va oziq-ovqat qo‘shilmalarini yaratish ustida O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, I.R.Asqarov, X.X. Xolmatov kabi ko‘plab o‘zbek olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Rossiyada I.A.Muravyov, B.M.Alekseeva, V.O.Tolmachev, V.A.Tutelyanlar tomonidan tarkibida tabiiy komponentlar saqlovchi biologik faol moddalar hamda oziq-ovqat qo‘shilmalari olish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorijda, F.Leal-Martines, M.R. Doych, Emili Alkok, Gxdder Jalilzodalar diqqatga sazovor ilmiy natijalarga erishganlar.

Bugungi kunga kelib tarkibida sarimsoqpiyoz va piyoz saqlagan, ayrim teri kasalliklarini davolash va oldini olishda hamda ichak parazitlariga qarshi oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqilmagan, ularning kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo‘yicha tovar kodlari amaliyotga joriy etilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi oziq-ovqat qo‘shilmalarini ayrim teri kasalliklari oldini olish va davolashda hamda ichakdagi gijjalarni tushurishda foydalanish, ular uchun kimyoviy tarkibi asosida tegishli yangi tovar kodlari ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universitetining “Xalq tabobati va xalq xo‘jaligida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash” ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sarimsoqpiyoz va piyoz ildizmevalarining kimyoviy tarkibini aniqlash asosida yangi turdagi surtma malham va oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqish, hamda ularning kimyoviy tarkibi asosida sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Mahalliy sharoitda yetishtirilgan sarimsoqpiyoz va piyozning kimyoviy tarkibi zamonaviy fizik-kimyoviy analiz usullari yordamida aniqlash;

Sarimsoqpiyoz va piyoz asosida yangi, ayrim teri kasalliklarini oldini olish,

davolash hamda ichak parazitlariga qarshi kurashishda qo‘llaniladigan biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasi yaratish;

olingan surtma malhami va biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasini fizik-kimyoviy, kimyoviy va fizikaviy usullar yordamida kimyoviy tarkibini aniqlash;

olingan surtma malhami va oziq-ovqat qo‘shilmalarini biologik faolliklarini antioksidant, antiradikal, antifungal xossalari orqali baholash;

olingan surtma malhami va biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasini Respublika Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik nazorat markazida laboratoriya sinovlaridan o‘tkazish,

olingan surtma malhami va biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnoma ishlab chiqish,

yangi olingan surtma malhami va biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalar uchun TIF TN bo‘yicha xalqaro tovar kodlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob’ekti sifatida Farg‘ona va Andijon viloyatlarida 2020-2023 yillarda yetishtirilgan sarimsoqpiyozni “Mayskiy VIR”, piyozning “Ravnaq” navlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan shifobaxsh vositalar olingan.

Tadqiqot predmetini sarimsoqpiyoz va piyoz o‘simliklarining kimyoviy tarkibi, biologik faolliklarini o‘rganish, hamda uni kimyoviy tarkibi asosida tegishli sinflarga ajratish tashkil etgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishlarini bajarishda yupqa qatlamli, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, UB-spektrofotometriya, xromato-mass-spektrometriya, induktiv bog‘langan plazmalı mass-spektrometriya, farmakologik, klinik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan sarimsoqpiyozning “Mayskiy VIR” va piyozning “Ravnaq” navlari tarkibidagi makro va mikroelementlar IBP-OES usulida aniqlanganda K, Ca, Mg, Na, P va S, elementlari miqdorlari Hindiston va Xitoyda yetishtirilgan navlarga nisbatan ko‘proq miqdorda to‘planishi isbotlangan;

Sarimsoqpiyozning “Mayskiy VIR” va piyozning ”Ravnaq” navlarini quruq ekstraktlari tarkibidagi β -karotinoidlar miqdori mos ravishda 19,40 mg % va 21.46 mg % ekanligi spektrofotometrik usulda aniqlangan;

Piyozning “Ravnaq” navi tarkibidagi suvda eruvchang vitaminlarni miqdori $B_3 > B_9 > B_1 > C > PP > C > B_6 > B_2$ tartibida kamayib borishi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida isbotlangan;

Sarimsoqpiyozning “Mayskiy VIR” va piyozning ”Ravnaq” navlari quritilgan kukuni tarkibida mos ravishda 26,72 mg/g va 73,76 mg/g aminokislotalar mavjud ekanligi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida aniqlangan;

sarimsoqpiyoz va piyoz asosida olingan “As-MO‘” oziq-ovqat qo‘shilmasining antioksidantlik faolligi adrenalinning *in vitro* sharoitida autooksidlanishini ingibirlash usulida gliklazidga nisbatan 1,72 marta, kversetinga nisbatan 1,4 marta yuqori ekanligi isbotlangan;

sarimsoqpiyoz va piyoz asosida olingan “Antineyrodermit” surtma malhamining neyrodermit teri kasalligini davolash xususiyati *in vitro* va *in vivo* usullarida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tarkibida sarimsoqpiyoz va piyoz asosida ayrim teri kasalliklarida qo'llaniladigan "Antineyrodermit" surtma malhami hamda ayrim ichak parazitlariga qarshi "As-MO'" oziq-ovqat qo'shilmasi yaratilgan;

Sarimsoqpiyoz va piyoz asosida tayyorlangan "Antineyrodermit" surtma malhami va "As-MO'" oziq-ovqat qo'shilmasini ishlab chiqarishga joriy etish uchun texnologik yo'riqnomalar ishlab chiqilgan;

Ayrim mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan teri kasalliklarini davolash, oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan, sarimsoqpiyoz va piyoz kukunlari saqlovchi tabiiy malham hamda oziq-ovqat qo'shilmalari uchun TIF TN bo'yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sarimsoqpiyoz va piyoz kukunlari asosida olingan "Antineyrodermit" va "As-MO'" surtma malhami va oziq-ovqat qo'shilmasi yaratilib kimyoviy tarkibi makro va mikroelementlari hamda vitaminlar tarkibi YuSSX usullarida, ularning biologik faolliklari yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan tasdiqlanganligi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarini vakolatli davlat tuzilmalari faoliyatiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sarimsoqpiyoz va piyoz o'simliklarining makro va mikroelementlar, flavonoid, oqsil, aminokislota, vitamin, yog', uglevod tarkibi va miqdori o'rganilganligi hamda, ushbu o'simliklarning kimyoviy tarkibiga asoslanib toksikologik, farmakologik, antioksidantlik faolliklari o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sarimsoqpiyoz piyoz o'simliklarini kimyoviy tarkibiga asoslanib "As-MO'" oziq-ovqat qo'shilmalari hamda "Antineyrodermatit" malhami yaratilganligi, texnikaviy shart va texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilganligi hamda TIF TN bo'yicha yangi tovar kod raqami ishlab chiqilib, bojxona amaliyotiga taqdim etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalq tabobatida qo'llanilayotgan sarimsoqpiyoz va piyoz kukunlari asosida olingan "Antineyrodermit" surtma malhami va "As-MO'" ayrim ichak parazitlariga qarshi oziq-ovqat qo'shilmalarini olish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha "As-MO'" va "Antineyrodermit" vositalari oziq-ovqat qo'shilmasi sifatida kimyoviy tarkibi asosida sinflanib, ularga "tarkibida allitsin, alliin, ajoen, kversitin, fitontsidlar saqlovchi dorivor o'simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan tabiiy malham va oziq-ovqat qo'shilmalari" uchun – 2106 90 980 7 kod raqamlari ishlab chiqilgan hamda bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2025 yil 20 iyun dagi 17/05-24-1184 - sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shu kabi oziq-ovqat qo'shilmalarini eksport va import qilishda ulardan undiriladigan boj to'lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

"As-MO'" oziq-ovqat qo'shilmasi va "Antineyrodermit" surtma malhami uchun texnik shart (Ts 304571521-01:2022) O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan

(O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 2024 yil 28 iyundagi 26-11/564-son xati va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 15 iyuldagi № 016497-son sanitariya-epidemiologik xulosasi). Natijada, zararsiz surtma malhami va oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqarish va ayrim teri kasalliklarini oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan barchasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan Respublika ilmiy nashrlarida 10 ta maqola va xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob‘yekti hamda predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Sarimsoqpiyoz va piyozning biologik faol xosilalari hamda umumiy tavsifi (adabiyotlar tahlili)**” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o‘rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan. Bu borada sarimsoqpiyoz o‘simligi (*Allium sativum* L) va piyoz (*Allium cepa* L.) ning botanik tavsifi, o‘simliklarning tarqalish areali, tarkibiy qismlarining kimyoviy tarkibi to‘g‘risida ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga ayrim teri kasallilari hamda ichak parazitlarining yuqish sabablari va davolash usullari, yuqoridagi kasalliklarni xalq tabobati usullari bilan davolashda qo‘llaniladigan sarimsoqpiyoz va piyoz dorivor o‘simliklari, ular asosida olingan biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarining kimyoviy tarkibi bo‘yicha tasniflanishi to‘g‘risida ham ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Sarimsoqpiyoz va piyoz asosida olingan oziq-ovqat qo‘shilmasini kimyoviy tarkibi asosida sinflash (olingan natijalar muhokamasi)**” deb nomlangan ikkinchi bobida sarimsoqpiyoz va piyozni sifat hamda miqdor ko‘rsatkichlarini aniqlash, ekstraktlari tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdorini, β -karotinoid, flavonoidlar, vitaminlar, aminokislotalar, oqsillar, uglevodlar, miqdorini aniqlash natijalari, sarimsoqpiyoz va piyoz po‘sti kukunlarining antioksidant faolligini adrenalin *in vitro* sharoitida aniqlash natijalari, sarimsoqpiyoz va piyozni asosida olingan “Antineyrodermit” surtma malhami hamda “As-MO” oziq-ovqat

qo‘shilmalari biologik faolliklarini aniqlash natijalari tahlil qilingan. Shuningdek ular uchun xom-ashyo olish texnologiyasi ko‘rsatib o‘tilgan.

Sarimsoqpiyoz va piyoz sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini aniqlash davlat farmakopeyasi talablaridan kelib chiqib bajarildi (1-jadval).

1-jadval

Sarimsoqpiyoz va piyozning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari

Tarkibi	Sarimsoqpiyoz	Piyoz
Namlik, %	10	12
Kul miqdori, %	4,8	5,2
Ekstraktiv moddalar miqdori, g/100 g	25	12,5

Tadqiqotimiz davomida Andijon va Farg‘ona viloyatlarida 2020-2023 yil yetishtirilgan sarimsoqpiyozning ertapishar “Mayskiy VIR” va piyozning “Ravnaq” navlari tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdorini induktiv bog‘langan plazmalı mass-spektrometriya usuli yordamida aniqlandi.


Sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibida biologik faol birikmalarni umumiy miqdorini aniqlash maqsadida suvli va spirtli ekstraktlarida sifat reaksiyalari bajarildi. Buning uchun suvli va 70% spirtli ekstraktlari ma‘lum usullar yordamida tayyorlanib olindi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi ayrim biologik faol birikmalar

Biologik faol birikmalar gurihi	Sifat riaksiyasi	Analitik natija
Flavanoidlar	alyuminiy xlorid 15% eritmasi yoki sianidin reaksiyasi eritmasi bilan	sariq-limon rang +
Oshlovchi moddalar	kaliy bixromatning 5% li eritmasi bilan reaksiya	to‘q qoramtir rang +
Polefenollar	temir ammoniyli eritma bilan	qora-yashil rang +
Organik kislotalar	qo‘rg‘oshin asetat bilan reaksiyasi	yig‘madan ajratib olingan eritma oq cho‘kmaga tushdi +
Karotinoidlar	Spektrofotometrik	yutish spektri 400 dan 500nm gacha, to‘lqin uzunli 450±3 nm da asosiy maksimumlari ko‘rildi +

Tarkibida sarimsoqpiyoz va piyoz saqlagan mahsulotlarda oltingugurt saqlovchi organik birikmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib oltingugurt saqlovchi organik birikmalarni oksidlanish darajasi -2 bo‘lgan (sulfidlar) oltingugurt birikmalarni p-amino –N,N-dimitilanilin bilan ko‘k rangli birikma hosil qilishini inobatga olib, suvli ekstrakti tarkibidagi oltingugurt saqlagan organik birikmalarni natriy sinkat bilan 200 °C haroratda minerallab, noorganik sulfid (rux sulfid) holiga o‘tkazildi. Shundan so‘ng p-amino –N,N-dimitilanilin hamda temirammoniyli achchiqtoshning ((NH₄)₂SO₄·Fe₂(SO₄)₃·24H₂O) 1 mol/l konsentratsiyasiyali sulfat kislotadagi eritmasi bilan o‘zaro ta’sirlashtirib N,N,N’,N’ -tetrametiltionin (II) hosil qilinadi.



Eritma konsentratsiyalari 665 nm to'liq uzunlikda optik zichliklari aniqlandi hamda olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan:

3-jadval

Sarimsoqpiyoz va piyoz suvli ekstraktlari tarkibidagi oltingugurt saqlagan organik birikmalar miqdori (noorganik oltingugurtga o'tkazilgandan keyin)

No	Olingan tortim, ml	Tekshiriluvchi eritmaning optik zichligi (D ₁)	oltingugurt saqlovchi organik birikmalar miqdori, mg
1	3	0.452	0.238
2	3	0.417	0.213

Izoh: 1-sarimsoqpiyoz, 2-piyoz

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahalliy sharoitda yetishtirilgan sarimsoqpiyoz va piyozni suvli ekastraktlari tarkibida oltingugurt saqlovchi organik birikmalar miqdori mos ravishda 100 g mahsulotda 0.238 mg, 0.213 mgni tashkil etishi tajribalarda o'z tasdig'ini topdi. Bu esa inson organizmini oltingugurt meneraliga bo'lgan kunlik ehtiyojini 10% tashkil etadi.

4-jadval

Sarimsoqpiyoz va po'sti tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdori mg/kg

No	Elementlar	Sarimsoqpiyoz mg/kg	Piyoz mg/kg
Makroelementlar			
1	Kaliy	12217.044	5684,374
2	Kalsiy	796.066	3240,293
3	Magniy	742.746	573,633
4	Natriy	427.961	330.007
5	Fosfor	3084.936	1637,383
6	Oltingugurt	222.851	280,291
Mikroelementlar			
1	Kremniy	97.516	1023,547
2	Alyuminiy	14.747	23,815
3	Temir	22.815	192,081
4	Marganes	2.146	7,234
5	Stronsiy	0.635	19,471
6	Mis	0.699	2,993
7	Ruh	2.488	7,587
8	Selen	0.113	0,274
9	Molibden	0.026	0,180
10	Kumush	0.001	0,030
11	Bor	3.815	11,891
12	Rubidiy	-	1,572
13	Mishyak	-	0,056
14	Germaniy	0,043	0,022

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibi makro va mikroelementlarga boy ekanligini ko'rish mumkin. Sarimsoqpiyoz va piyoz kukunlari

tarkibida Mg, P, Ca, Mn, Fe, Cr, Cu, Zn, Ge, S makro va mikroelementlar miqdori boshqa o'simliklarga qaraganda yuqoriroq ekanligi tasdiqlandi. Zaharli elementlar miqdori ruxsat etilgan meyordan oshmaganini ko'rish mumkin.

Sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi β -karotinoidlar miqdorini aniqlash. Karotinoidlar o'simlik, ayrim mikroorganizmlar va hayvonlarning sariq, pushti, qizil rangli pigmenti bo'lib, vitamin A provitamin sifatida oziq – ovqat sanoati hamda biologik faol birikmalarni qiymatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda yetishtiriladigan sarimsoqpiyozning ertapishar “Mayskiy VIR” va piyozning “Ravnaq”, navlari tarkibidagi β -karotinoid miqdorini spektrofotometrik usulda aniqladik. Olingan natijalardan sarimsoqpiyoz 19,40 mg %, piyoz 21,46 mg % β -karotinoid saqlashi ma'lum bo'ldi.

Hozirda dorivor o'simliklar antioksidant faollikka ega bo'lgan biologik faol birikmalarning istiqbolli manbai hisoblanmoqda. O'simliklar tarkibidagi yuqori antioksidantlikni namoyon qiluvchi birikmalar bu flavonoidlar bo'lib, ular inson tanasida hosil bo'lmaydi, faqat tashqaridan oziq-ovqatlar istemolidan qabul qilinadi va ular yuqori samarali antioksidant hisoblanadi.

Tadqiqot obekti bo'lgan sarimsoqpiyozni “Mayskiy VIR”, va piyozning “Ravnaq” navlari tarkibidagi umumiy flavonoidlar miqdorini spektrofotometrik usulda optik zichlikni o'lchash yo'li bilan aniqlandi.

Olingan natijalardan ko'rish mumkinki 100 g sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi umumiy flavonoidlarning miqdori sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibida mos ravishda 0.3161 va 0.4238 mg ni tashkil etishi o'z tasdig'ini topdi.


Sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini aniqlash. Olib borilgan tadqiqotlarimizni keyingi bosqichi sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini YuSSX usuli bilan aniqlashga qaratilgan.

Buning uchun dastlab sarimsoqpiyoz va piyoz ekstraktlarini ishchi va standart eritmalar tayyorlab olinib ularning xromatogrammalari tahlil qilindi: (5-jadval).


5-jadval

Sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini xromatografik aniqlash natijalari

Vitamin	Sarimsoqpiyoz			Piyoz		
	Ushlanish vaqti, min	Konsentrasiya mg/g	100 g dagi miqdor, mg	Ushlanish vaqti, min	Konsentrasiya mg/g	100 g dagi miqdor, mg
B ₁	3,027	1,771	4,428	3,005	4,807	12,018
B ₃	5,403	12,65	31,625	5,395	10,683	26,708
PP	7,962	10,56	26,400	7,996	2,117	5,293
B ₉	17,001	1,9	4,750	16,401	5,532	13,830
B ₂	19,178	0,286	0,715	18,845	1,261	3,153
B ₆	6,606	0,078	0,195	5,656	2,013	5,033
C	4,28	2,677	6,693	4,215	3,425	8,563



1-rasm. Sarimsoqpiyoz tarkibidagi suvda eriydigan vitaminlarni xromatogrammasi



2-rasm. Piyoz tarkibidagi suvda eriydigan vitaminlarni xromatogrammasi

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sarimsoqpiyoz va piyoz ildizmevasi tarkibida B-guruh vitaminlar umumiy vitaminlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ushbu vitaminlar asab hujayralarini hosil bo'lishida ishtirok etadi va miya faoliyati uchun, soch, teri, ko'zlar va jigarni sog'lom ishlashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mikroorganizmlar bilan kurashishda, organizmni erkin radikallar bilan kurashishda vitamin C asosiy komponentlardan biri hisoblanadi. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotda sarimsoqpiyoz va piyoz ildizmevalari tarkibida vitamin C mos ravishda 6,693 va 8,563mg/g tashkil eishi aniqlandi.

O'zbekistonda yetishtirilgan sarimsoqpiyoz va piyoz ildizmevalari tarkibidagi vitaminlar miqdori Rossiya, Qozog'iston va Xitoyda yetishtirilgan sarimsoqpiyoz va piyoz bilan qiyosiy taqqoslanganda teri va sochlarni sog'lomlashtiruvchi, ichak faoliyatini yaxshilab yuqori antioksidantlikni namoyon qiluvchi B₃, B₁, C vitaminlarining ko'pligi shifobaxshlik xususiyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi aminokislotalar miqdorini aniqlash. Farg'ona vodiysida o'suvchi sarimsoqpiyozni "Mayskiy VIR" va piyozning "Ravnaq" navlari tarkibidagi aminokislotalar miqdori YuSSX usuli yordamida o'rganilganda mahsulot tarkibida almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalar oldin o'rganilgan

mintaqalardagi sarimsoqpiyoz tarkibidagi aminokislotalardan farq qilishi o'z aksini topdi.

6-jadval

Sarimsoqpiyoz va uning po'sti tarkibidagi aminokislotalar miqdori

Aminokislota nomi	O'zbekistonda yetishtirilgan sarimsoqpiyozning "Mayskiy vir" va piyozning ravnaq navlari			
	Sarimsoqpiyoz	Sarimsoqpiyoz . po'sti	Piyoz mevasi	Piyoz po'sti
	Konsentratsiya mg/gr			
Asparagin kislotata	0,14	0,0798	3,197	3,539
Glutamin kislotata	0,29	0,088	1,078	0,365
Serin	1,056	0,275	4,189	0,514
Glitsin	0,85	0,133	4,349	3,7
Asparagin	0,85	0,130	10,744	0
Glutamin	7,26	0,123	6,706	5,79
Sistein	3,197	0,466	2,148	5,008
Treonin	0,72	0,356	5,858	2,292
Argenin	1,397	0,281	5,398	4,907
Alanin	0,723	0,141	4,172	3,591
Prolin	3,72	0,457	3,855	2,919
Tirozin	0,921	0,133	2,241	0
Valin	0,953	0,41	7,249	0
Metionin	0,381	0,016	0,933	2,403
Gistidin	0,293	0,065	1,168	0
Izoleytsin	0,539	0,045	3,576	0,714
Leytsin	0,325	0,06	1,962	2,001
Triptofan	1,444	0,15	4,936	0
Fenilalanin	0,388	0,009	73,761	37,744
Lizin	1,259	0,017	3,197	3,539
Jami	26,715	3,437	1,078	0,365

Olingan natijalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki piyoz va po'sti tarkibidagi aminokislotalarning miqdorini tahlil qilish davomida ushbu mahsulot aminokislotalar manbasi sifatida tavsiya etish imkonini beradi.

Sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi umumiy oqsil miqdorini aniqlash. Aminokislotalarning o'zaro peptid bog'lari orqali bog'lanishi natijasida oqsillar hosil bo'ladi, oqsillar tirik organizmlarda muhim biologik jarayonlarda ishtirok etishini hisobga olgan holda tadqiqot obekti bo'lgan sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi suvda eruvchan oqsillarni miqdorini Louri usulida aniqlandi.

Olingan natijalarni qayta ishlash: tahlil qilinayotgan namunadagi azotning (X) massa ulushi ammiakni suyultirilgan sulfat kislotadan o'tkazib qolgan miqdorni titrlashdan keyingi hajm orqali namuna massasiga nisbatan foizda formula (1) bo'yicha hisoblab topiladi.

$$X = \frac{(V_1 - V_0) * K * 0.0014}{m} * 100\%$$

V_0 -namuna tajribasida ortib qolgan 0.1 mol/l sulfat kislota eritmasini titrlash uchun sarflangan 0.1mol/l natriy gidroksid eritmasining hajmi, ml.

7-jadval

Sarimsoqpiyoz va piyoz hamda po'sti tarkibidagi oqsil miqdori

№		Azot miqdori (%)	Umumiy oqsillar miqdori %
1	Sarimsoqpiyoz	0,110	3,54
2	Sarimsoqpiyoz po'sti	0,012	0,24
3	Piyoz po'sti	0,136	0,73
4	Piyoz mevasi	0,143	1,62

Olingan natijalardan shuni ko'rish mumkinki sarimsoqpiyoz va piyoz hamda po'sti tarkibidagi suvda eruvchan oqsil miqdori mos ravishda quruq massasini 3.54%, 0.24% va 1,62%, 0.73% qismini tashkil etishini ko'rish mumkin. Bu esa farmasevtika sanoati va oziq-ovqat sanoatida ushbu mahsulotlardan biologik faol birikmalar ishlab chiqarishda dastlabki xom ashyo sifatida foydalanish imkonini beradi. Mahalliyashtirish natijasida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi uglevodlar miqdorini aniqlash. Oziq-ovqat qo'shimchalari tushunchasi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mana shunday oziq-ovqat mahsulotlaridan biri sarimsoqpiyoz va uning po'sti tarkibidagi uglevodlar miqdorini aniqlashni maqsad qilib oldik. Maxalliy sharoitda etishtirilgan sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi uglevodlarni miqdorini YuSSX usuli yordamida aniqlandi.


8-jadval

Sarimsoqpiyoz va uning po'sti tarkibidagi uglevodlar


Uglevodlar	Kontsentratsiya %	
	Sarimsoqpiyoz	Piyoz
Fruktoza	0.00	1,522
Glyukoza	0.00	1.17
Saxaroza	7.15	1.07
Maltoza	0.00	0.00
Jami	7.15	3.76

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki sarimsoqpiyoz va piyoz tarkibidagi umumiy uglevodlar miqdori solishtirilganda sarimsoqpiyoz tarkibi uglevodlar miqdoriga boy ekanligini ko'rish mumkin. Olingan ma'lumotlardan oziq-ovqat qo'shilmalari tayyorlashda dastlabki xom ashyo sifatida foydalanish imkonini beradi.

Sarimsoqpiyoz va piyoz asosida oziq-ovqat qo'shilmasi hamda surtma malham ishlab chiqish. Ma'lumki dunyo farmasevtikasida, oziq-ovqat sanoati hamda qishloq xo'jaligi sohalarida tarkibida sarimsoqpiyoz va piyoz kukunlari saqllovchi bir qancha mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Sarimsoqpiyoz kukunini kimyoviy tarkibi biologik faol birikmalrga juda boyligi, ozuqaviy va shifobaxsh xususiyatlarining keng qamrovligi bilan ahamiyatlidir. Olib borilgan tadqiqotlarimizga asoslanib tarkibida sarimsoqpiyoz va piyoz kukunlari saqlagan yangi ekologik toza biologik faol oziq ovqat qo'shilmasi hamda surtma malhami olish texnologiyasi ishlab chiqildi.



1-sxema. Sarimsoqpiyoz kukunini asosida “Antineyrodermit” surtma malhami olinish texnologiyasi sxemasi



2-sxema. Piyoz kukunini olinish texnologiyasi sxemasi

Sarimsoqpiyoz va vazelin (parafinni) asosida olingan surtma malhamini olish va standartlash hamda uni asosida surtma malham shaklidagi biologik faol qo'shilmasini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi ekspertlari guruhi tomonidan Ts 303271760-01:2023 raqamli texnik shart va Ty 24394378-01:2023 raqamli texnik yo'riqnomalar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Ushbu texnologiyalar asosida texnik shart, texnologik yo'riqnomalar shakllantirilib "As-MO", "Antineyrodermit" nomli tovar mahsulotlari tayyorlandi.

Olingan "As-MO" oziq-ovqat qo'shilmasini antioksidant faolligi o'rganildi.

9-jadval

"As-MO" oziq-ovqat qo'shilmasini antioksidantlik faolligi

№	Modda	Nazorat	Tajriba	%
1	"As-MO" (10%) 100 mg/ml	0,36558	0,18232	50,12
2	"As-MO" (25%) 250 mg/ml	0,38258	0,18218	52,38
3	"As-MO" (50%) 500 mg/ml	0,41901	0,19541	53,36
4	"As-MO" (75%) 750 mg/ml	0,43052	0,19122	55,58
5	"As-MO" (100%) 1000 mg/ml	0,48105	0,19640	59,17
	Gliklazid			10,0%
	Kversetin			34,7%

Tahlil natijalar ko'ra 5-namuna ekstrakti AOF% ko'rsatgichi kuchli antioksidant faolligi – kversetinga nisbatan pastroq bo'lsa-da, gliklazidga nisbatan qolgan namunlarda antioksidantlik xususiyati yuqoriroq ekanligi aniqlandi. "As-MO" oziq-ovqat qoshilmasini ichak parazitlariga qarshi qo'llash uchun tavsiya etish imkonini berdi. Shunday qilib, sarimsoqpiyoz va piyozni ekstraktlari asosida olingan "As-MO" oziq-ovqat qo'shilmasini kversetin va gliklazid kabi antioksidant faolligiga ega ekanligi o'z tasdig'ini topdi.

10-jadval

"As-MO" oziq-ovqat qo'shilmasini polifenollari miqdori va ushlanish vaqtlari.

Fenol birikma nomi	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
Gall kislotasi	8,224	149,794	374,49
Rutin	18,656	22,602	56,5
Salitsil kislotasi	22,523	0,592	1,48
Kversitin	24,668	0,229	0,57
Apigenin	25,887	0,289	0,72
Kaempferol	Aniqlanmadi	0	0

"As-MO" oziq-ovqat qo'shilmasini tarkibidagi flavonoidlar miqdorini YuSSX usulida aniqlash natijasida oltita flavonoiddan beshtasi aniqlandi. Eng ko'p miqdorda gall kislotasida (374,5 mg/gr) tashkil etishi aniqlandi. Ushbu olingan natijalardan mazkur oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi ushbu polifenol birikmalar organizmdagi erkin radikallarga qarshi kurashishda yuqori natijalarga erishis imkonini beradi. Polifenol birikmalar deyarli barcha o'simlik to'qimalarida, shu jumladan tadqiqot

obekti bo'lgan piyoz va sarimsoqpiyozda ham mavjud. Olingan ilmiy manbalarda keltirilishicha polifenollar antioksidant, saratonga qarshi, mikroblarga qarshi, yallig'lanishga qarshi, neyroprotektiv va antifungal faolliklarni namoyon etadi.

Dissertatsiyaning **“Sarimsoqpiyoz va piyoz asosida olingan “As-MO” oziq-ovqat qo'shilmasini klinik sinovlari”** deb nomlangan uchinchi bobida olingan “As-MO” oziq-ovqat qo'shilmasini klinik sinovi natijalarida asosan ichak parazitlari pakana gijja, askarida va ostritsa ko'rinishidagi parazitlar bilan kasallangan bolalarda qo'llanildi va ularning ta'siri natijalari quydagi jadvalda keltirilgan.

11-jadval

“As-MO” oziq-ovqat qo'shilmasini klinik natijalari (% da)

	Kapsula va tabletka nomi	3-Kun	6-Kun	9-Kun	12-Kun	15-Kun	18-Kun	20-Kun
1	As-MO' (4:1)	40	60	80	100			
2	As-MO' (2:1)	35	50	75	90	100		
3	Vermin (tabletka)	35	45	60	75	85	90	100
4	Dekaris (tabletka)	35	50	65	80	90	95	100

Sintetik dori vositalari “Vermin” va “Dekaris” preparatlari bilan davolangan bemorlar “As-MO” oziq-ovqat qo'shilmasi orqali davolangan bemorlarni qayta tahlil natijalari qiyoslanganda mazkur oziq-ovqat qo'shilmasi vositasi bilan davolangan bemorlarda 8-kun oldin ijobiy natija ko'rsatib xech qanday allergik xolatlar kuzatilmadi.

Dissertatsiyaning **“Sarimsoqpiyoz kukuni asosida tayyorlangan surtma malhamini klinik sinovlari”** deb nomlangan uchinchi bobida olingan “Antineyrodermit” surtma malhamini klinik sinovi natijalarida asosan neyrodermit teri kasalligini klinik tadqiqoti keltirilgan.

Klinik tadqiqotlar neyrodermit kasalligining turli shakllari bilan kasallanib, Andijon shahar teri tanosil kasalliklari dispanseri Dermatovenerologiya bo'limida davolanayotgan 20 nafar bemorlarga sintetik dori vositalari “Sinaflan” hamda “Bornaya maz” (surtma dori) lari va tabiiy vosita “Antineyrodermit” surtma malhamini qo'llash bilan amalga oshirildi.

12-jadval

Antineyrodermit surtma malhamini neyrodermit kasalligida qo'llanilish natijalari

	Maz (surtma dori) nomi	3-Kun (%)	6-Kun (%)	9-Kun (%)	12-Kun (%)	15-Kun (%)	18-Kun (%)	20-Kun (%)
1	Antineyrodermit 15%	50	70	85	100			
2	Antineyrodermit 5%	40	50	75	90	100		
3	Sinaflan	35	45	60	75	85	90	100
4	Bornaya maz	35	55	70	85	90	95	100

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki sintetik preparatlar bilan davolanagan bemorlardan ko'ra Antineyrodermit surtma malhami qo'llanilgan bemorlarning davolanishi 12-kunida ijobiy natija kuzatigan.

TIF TN asosida sinflash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra "As-MO" va "Antineyrodermit" nomli tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo'shilmasi va surtma malhamlari kimyoviy tarkibi asosida sinflanib, unga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha "tarkibida allitsin, alliin, ajoen, kversitin, fitontsidlar saqlovchi dorivor o'simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari" uchun – 2106 90 980 7 xalqaro kod raqami mos keladi deb hisoblandi.

Tavsiya etilgan kod raqami tarkibida sarimsoqpiyoz va piyoz saqlovchi mahsulotlarni tovar ayriboshlash munosabatlarini to'g'ri tartibga solish imkonini beradi hamda amaliyotga joriy etishni tasdiqlaymiz.

13-jadval.

"As-MO" nomli shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi va "Antineyrodermit" surtma malhamlariga TIF TN bo'yicha tavsiya qilingan tovar kodi

TIF TN Kodi	Pozitsiyalarni nomlanishi
- 2106	Boshqa joyda ko'rsatilmagan yoki ko'rsatilmagan oziq-ovqat mahsulotlari kiritilgan
---2106 90 980	Boshqalar
--2106 90 980 7	Tarkibida allitsin, alliin, ajoen, kversitin, fitontsidlar saqlovchi dorivor o'simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari

Iqtisodiy samaradorlik. "As-MO" oziq-ovqat qo'shilmasi va "Antineyrodermit" surtma malhami tan narxi 19 000 so'mdan ekanligini inobatga olgan holda iqtisodiy samaradorlik 1 yil davomida har oyda 20 nafar bemor davolanishida yillik 96 000 000 so'm hisoblandi.

XULOSALAR

Sarimsoqpiyoz va piyoz asosida xalq tabobatida foydalanish uchun tovarlar olish va ularni sinflash mavzu yuzasidan quyidagi hulosalar olindi:

1. Fitokimyoviy izlanishlar davomida Farg'ona vodiysida o'suvchi sarimsoqpiyoz va piyoz namunasining spesifik faolligini belgilovchi biologik faol moddalar majmui, flavonoidlar, vitaminlar, oqsil, aminokislota, uglevod hamda makro- va mikroelementlar tarkibi va miqdori o'rganildi. Lekin, mazkur o'simliklar asosida kompozitsion oziq-ovqat qo'shilmalari yaratilmaganligi aniqlandi.

2. Sarimsoqpiyoz va piyozning turli nisbatlarda olingan kompozitsiyalarining *in vitro* sharoitda antioksidantlik xususiyati tadqiq etilganda 4:1 nisbatdagi kompozitsiya kversetin va gliklazidga nisbatan mos ravishda 1,7 hamda 6 barobar yuqori antioksidantlik faollikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Mazkur kompozitsiya asosida "As-MO" nomli yangi oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqildi.

3. “As-MO” oziq-ovqat qo‘shilmasining yuqori antioksidantlik faollik namoyon qilishi uning tarkibidagi polifenollarning YuSSX metodida aniqlangan gall kislotasi (374,49 mg/100 g) va rutin (74,5 mg/100 g) miqdori yuqoriligi bilan izohlandi.

4. Sarimsoqpiyozning teri kasalliklariga qarshi xususiyati yuqoriligini inobatga olgan holda uning asosida olingan “Antineyrodermit” surtma malhami va kapsula shaklidagi “As-MO” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish, standartlash bo‘yicha Ts 303271760-01:2023, Ts 303271760-03:2023 raqamli texnik shartlar, TY 568271452-01:2024 raqamli texnik yo‘riqnomasi ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan tasdiqlandi.

5. “As-MO” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Milliy Sertifikatlash tizimi tomonidan muvofiqlik sertifikatini olinib № 016497 raqami bilan davlat restiriga kiritildi va Andijon viloyatidagi “Oltin vodi tabiati” MChJ da ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

6. Klinik tekshiruvlar natijasida “Antineyrodermit” surtma malhami neyrodermit teri kasalligini davolashda, hamda “As-MO” tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasi esa ichak parazitlariga qarshi kurashishda amaldagi ayrim sintetik dori vositalariga nisbatan samarali, zararsiz ekanligi isbotlandi.

7. 1 yil davomida har oyda 20 nafar bemorlarni “Antineyrodermit” surtma malhami bilan davolashda 9 600 000 so‘m, “As-MO” tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasi bilan davolashda esa 86 400 000 so‘m yillik iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligi isbotlandi.

8. “As-MO” kabi sarimsoqpiyoz va piyoz asosidagi tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari kimyoviy tarkibi asosida sinflanib, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha “tarkibida allitsin, alliin, ajoen, kversitin, fitontsidlar saqlovchi dorivor o‘simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari” uchun – 2106 90 980 7 tovar kodi ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan amaliyotda qo‘llash uchun qabul qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАМАТКУЛОВА УГИЛХОН ОДИЛОВНА

**ПОЛУЧЕНИЕ НА ОСНОВЕ ЧЕСНОКА И ЛУКА ТОВАРОВ ДЛЯ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ И ИХ
КЛАССИФИКАЦИЯ**

**02.00.09 -Химия товаров
14.00.41 – Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/K538.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.adu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:

Аскарлов Ибрахим Рахманович
доктор химических наук, профессор
Абдуллоев Обиджон Шахабидинович
доктор химических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Хужаев Вахобжон Умарович
доктор химических наук, профессор
Дехконов Рахматилла Султонович
кандидат химических наук, доцент

Ведущая организации:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится “05” 05 2025 года в 10⁰⁰ на заседании Научного совета DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 при Андижанском государственном университете. Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, 129, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрационный номер _____). (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33, e-mail: agsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан “28” 04 2025 года.
(№ реестра протокола рассылки 53 от “28.04” 2025 года.)



Ш.М Киргизов
Председатель научного
совета по присуждению учёных степеней
д.х.н., профессор
М.М.Муминжонов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней, д.х.н., доцент

М.М.Хожиматов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы. В современном мире из-за побочного действия различных паразитических организмов на здоровье человека увеличивается заболеваемость, проводятся научные исследования по определению химического состава лекарственных растений, разработке на их основе натуральных антипаразитарных пищевых добавок, полезных и безвредных для организма человека. В связи с этим особое значение придается определению сильных антигельминтных, противовоспалительных свойств, витаминов, биогенных элементов и полифенольных соединений в таких растительных продуктах, как чеснок (*Allium sativum* L) и лук (*Allium cepa* L.), которые широко используются не только в пищу, но и в народной медицине. Поэтому большое научное и практическое значение имеет выявление полезных для организма человека соединений, макро- и микроэлементов, содержащихся в этих растениях, и разработка на их основе новых видов пищевых добавок.

В мире ведутся исследования по разработке пищевых добавок на основе натуральных соединений, выделенных из лекарственных растений, обладающих свойствами профилактики и лечения кожных заболеваний, вызванных микроорганизмами. В связи с этим лекарственные растения, содержащие соединения серы, являются эффективным источником предотвращения роста микроорганизмов. К числу таких растений относятся чеснок, лук, и растет потребность в разработке биологически активных добавок к пище на их основе, которые являются натуральными, экологически чистыми, повышают иммунитет, борются с микроорганизмами и заменяют некоторые синтетические препараты. Исходя из этого, актуально создание натуральных пищевых добавок на основе серосодержащих растений чеснока и лука, обладающих свойствами профилактики и лечения некоторых кожных заболеваний, определение их химического состава и классификация по правилам Номенклатуры товаров внешнеэкономической деятельности (ТН ВЭД).

В нашей стране в целях обеспечения здоровья человека разработаны различные лекарственные средства и лекарственные средства, а в целях обеспечения здоровья населения проведены заслуживающие внимания практические работы и достигнуты определенные результаты. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи «увеличение объёма производства продукции фармацевтической промышленности в 3 раза и доведение уровня поставок на местный рынок до 80%». В связи с этим большое научное и практическое значение имеет проведение научных исследований, направленных на определение содержания биологически активных веществ в растениях чеснока и лука, произрастающих в Ферганской долине, создание пищевых добавок с различной биологической активностью, внедрение их в практику и разработка критериев сертификации.

